



BUGUNGI ADABIY JARAYONDA NASR

Tojiboyeva Ruxshona

*O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti
O'ZMPU Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti
yo'nalishi 401-guruh talabasi*

Annotatsiya: Maqolada bugungi kundagi eng dolzarb muammolardan biri kitob mutolaasining kamayib ketganligi, sifatli asarlarning chiqmay qo'yganligi, norasmiy nashriyotlarning soni ko'payib ketganligi va yurtimizda samarali ijod qilib kelayotgan, asarlari va ijodiy ishlari maktab bolalari uchun ham o'z tarbiyaviy ahamiyati bilan ajralib turuvchi asarlar, she'rlar yozgan Miraziz A'zam ijodi hayotiy misollari yordamida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Tarbiya, kitob, norasmiy, nashriyot, tahririyat, ustoz, ilm, hurmat, ilmsizlik, Buxoriy, hadis, ota-ona

Аннотация: В статье анализируется одна из самых актуальных проблем современности – снижение интереса к чтению книг, нехватка качественных произведений, рост числа неофициальных издательств, – и работа Миразиза Азама, эффективно творящегося в нашей стране и отличающегося воспитательной ценностью для школьников, – с использованием реальных примеров из творчества поэта.

Ключевые слова: Образование, книга, неформальное образование, издательское дело, редакционная статья, учитель, знание, уважение, невежество, Бухари, хадис, родители

Abstract: The article analyzes one of the most pressing problems today - the decline in book reading, the lack of quality works, the increase in the number of unofficial publishing houses, and the work of Miraziz A'zam, who has been working effectively in our country and whose works and creative works are distinguished by their educational value for schoolchildren - using real-life examples from the work of the poet.

Key words: Education, book, informal, publishing, editorial, teacher, knowledge, respect, ignorance, Bukhari, hadith, parents

KIRISH

Bugungu kunda mamlakatimizda barcha sohalar teng ravishda rivojlanib bormoqda. Tibbiyot, mashinasozlik, biznes yoki ta'lim va sport. Ta'lim sohasi ham aynan o'z ichida bir necha turlarga bo'linadi va shu turlar bo'yicha kun sayin sovrindorlar, yaxshi natija ko'rsatayotganlar soni ortib bormoqda. Ammo har

rivojlangan joyning bir susayib borayotgan tomonlari ham bo'ladi. Masalan, hozirgi kundagi eng dolzarb mavzulardan biri - yozuvchilarimiz yaxshi kitob chiqarishmayabdimi? yoki kitobxonlarimiz soni kamayib ketganmi? Bu savolga menimcha, shunaqa javob bera olaman: Hozirgi kunimizda turli xil tashkilotlarning o'zlari tomonidan ta'sis etilgan norasmiy tadbirlar uchun o'tkaziladigan medal va diplomlar, nomini o'zgacha qilib olib, sifati oz, soni ko'payib ketgan nashriyotlar aynan sifatli asarlarning susayishiga olib keldi. Avvallari qandayda bir she'r yoki asar yozsangiz nashriyotga borib navbat kutardingiz, she'rlaringizda xatolik chiqsa, tuzatib yana olib kelardingiz. Buni Abdulla Qahhorning "Sarob" romanidagi Saidiy obrazi orqali ham esga olishimiz mumkin. Hozir esa aksincha, 30-40 she'r yozib, pulini bersangiz 100 nusxali kitobingiz ertasi kuni qo'lingizda bo'ladi. Ammo bu kabi jarayonlar avj olgan pallada mamlakatimizda samarali faoliyat yuritayotgan yozuvchi nosirlarimiz, shoirlarimiz ham bor.

ASOSIY QISM

Jamiyat rivojlangani va zamon o'zgargani sababli intiluvchan va qiziqqon o'quvchilar soni ham ortib boradi. Ammo qarashlar ham zamonga mos ravishda o'zgarib boradi. Hozirgi vaqtda maktab o'quvchilari qo'lida adabiyotimizda tilloga teng "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon, "Dunyoning ishlari" kitoblari o'rniga turk yozuvchilarining chiroyli bezatilgan va hikmatli so'zlar qo'llab, rasmlar bilan berilgan voqeasiz asarlarini ko'rishimiz ham biroz achinarli. Negaki, yoshlarimiz teranroq fikrlashlari uchun, nutqlarini ravon va fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishlari uchun albatta, o'tmishimizni bilmog'i, o'rganmog'i zarurdir.

Adabiyotshunosligimizda Miraziz A'zamning bir qator doston, asar va bolalar ruhiyatini kuylab yozgan she'riy baytlari alohida o'rin tutadi. Uning doston va she'rlarini o'qir ekansiz, xuddiki bolalar ruhiyati va qarashlarini boladek ochib bera olganligini ko'rishingiz mumkin. Buni adibning o'zi bir intervyusida ishi sababli ko'p maktab, bog'chalarda bo'lganligi va shu sababdan bolalar ruhiyatini ko'proq kuzatganligini aytgan edi. Hayotida ijodiy faoliyatini aynan adib bo'laman deb boshlamagan shoir, xotiralarida 6-sinfligida o'pkasi kasallanganligi sababidan boshqa maktabga ko'chiriladi. Maktabidagi adabiyot fanidan dars beradigan ustoz va ularning to'garagiga borganligi, keyin she'r yozganligi va maktab devoriy gazetasida she'rlari chiqqanligini aytadi. Aynan mana shu voqealar adabiyotimizda yana bir serqirra ijodorning paydo bo'lishiga turtki bo'lgan.

Miraziz A'zamning "Eng yorug' yulduzlar" turkumiga kiruvchi Buxoriy darsi hikoyasida ham hozirgi bolalar orasida uchrab turadigan ba'zi holatlar ko'rsatilgan va shuning uchun ham bu to'plam tarbiyaviy ahamiyti jihatidan ham yetakchidir. "Buxoriy darsi" hikoyati orqali ilm va ilm beruvchini hamisha hurmat qilish kerak degan g'oya yotadi. Maktabda bir kuni uch sinfdosh Hakim, Said, Mansur "O'qituvchi agar dars paytida xato gapirsa, hammaning yonida aytish kerakmi yoki indamaslik kerakmi?" savolida tortishib qolishadi. Biri faqat muallimning o'ziga aytishimiz kerak desa, bir yo'q ilmni himoya qilmog'imiz kerak. Bo'lmasa, biz o'z manfaatimizni ustun qo'ygan bo'lamiz deb fikr bildirib, bir hikoyatni keltiradi. Demak, bu suhbatdan ma'lum bo'ladiki, ilm bobida xatolik ketsa, uni o'sha vaqtda aytib to'g'irlashimiz kerak. Chunki bu ilmga bo'lgan hurmatimizni bildiradi. Xuddi Buxoriy 10 yoshida o'z bilimlarini ustoz oldida dalillab berganidek...

Ushbu hikoyatning tarbiyaviy ahamiyatining yana bir tarbiyaviy tomonlaridan biri shundaki, Buxoriy hadislarining maktab o‘quvchilariga mos ravishda qo‘llanilishi. Masalan, “Ilmga ilm olmoq yo‘li bilan erishilg‘ay” hadisi aynan bilim insonda shunchaki shakllanmasligi, qancha ko‘p o‘qisangiz, shunchalik ilmsiz ekanligingizni anglab borishingizni, ilm olishning zahmatli va qiyinchiliklari borligi anglatiladi. “Odam qiladigan gunohi azimlardan biri - ota-onasini haqorat qilmoqdir. Birovning ota-onasini so‘kkan odam o‘z ota-onasini haqorat qilgan bo‘lur”. Aynan ushbu hadis ham o‘quvchilar yoshiga mos. Maktabda kuzatiladigan holatlardan biri tilidan chiqayotgan gaplarni ba’zida tengdoshlariga o‘ylamasdan gapirishlari. Inson hamisha tilidan chiqayotgan har bitta so‘zga e’tiborli bo‘lmog‘i va o‘zidan katta insonlarni har doim himoya qilmog‘i kerak. Aynan asar shu jihati bilan ham tarbiyaviyligini yo‘qotmagan. Ota-onalarimiz hamisha bizni yaxshi farzand bo‘lishimiz uchun harakat qilishadi, hamisha insonlar orasida ham ularning ishonchini oqlashlarini hohlaydi. Shuning uchun qayerda bo‘lmaylik, ularning ishonchi va hurmati, orini ko‘tarib yuramiz. Bu hadislarining o‘quvchilar uchun asarda berilishi ham aynan o‘quvchilarimiz bilmagan bilimlarini bilishi va anglashiga imkon beradi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytish joizki, Miraziz A‘zamning ijod namunalarida uning qanchalik bolajon insonligini his qilishimiz mumkin. Chunki, yozilgan asarlaridagi voqealar, she‘rlaridagi baytlar aynan bolalar kayfiyati, dunyoqarashi, vaziyati, o‘zlarini tutishlarigacha to‘la ochib bergan. Qizining bir radioda aytib berishicha, u Miraziz A‘zamning ellik ikki yoshida dunyoga kelgani va uch o‘g‘ildan keyin tug‘ilganligi uchun otasi uni juda boshqacha yaxshi ko‘rishini aytgan edi. Demakki, u o‘z farzandlarini ham shunaqa bolalarcha mehr, samimiylik bilan tarbiya qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Miraziz A‘zam, Eng yorug‘ yulduzlar: (Maktah sahnasi uchun darslar, pyesalar, maqolalar). — T.: “Sharq”, 2002, 112b.
2. Miraziz A‘zam, Saylanma.
3. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/miraziz-azam-qirq-bolaga-qirq-savol.html>
4. <https://kitobxon.com/oz/yozuvchi/miraziz-azam>